XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 8-aprel VII-9-42-7-92-K/25 Oqdaryo tumani

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining VII-6-7-7-92-K/25-sonli qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Oqdaryo tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 20-fevraldagi P-01551-sonli, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning bildirish xatlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Oqdaryo tumani Soliq inspeksiyasining 2025-yil 20-fevraldagi P-01551-sonli, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurovning bildirish xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining 2025-yil 31-yanvardagi VII-6-7-7-92-K/25-sonli qarorining 1-, 2-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Oqdaryo tumani bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar (suv hajmiga nisbatan) 1-ilovaga;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2025-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning qolgan bandlari o‘zgartirishsiz qoldirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (D.Adilova) mazkur Kengash qarorini manfaatdor tashkilotlarga yetkazsin.

Kengash raisi QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining
2025-yil 8-apreldagi
VII-9-42-7-92-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar
(suv hajmiga nisbatan)

T/r	Tuman nomi	Yer usti suv manbasi			Yer osti suv manbasi		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**
1	Oqdaryo tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq “Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun” soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun soliq stavkalariga xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qo‘llanilayotgan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlar mazkur moddaning 2-3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan yirik soliq to‘lovchilarga tatbiq etilmasligi belgilab qo‘yilsin.

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashining
2025-yil 8-apreldagi
VII-9-42-7-92-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2025-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar
1	Oqdaryo tumani	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,2	1,3